

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda **19 147,9** mlrd. so'mni tashkil etdi va 2025- yilning yanvar-iyun oylari bilan taqqoslaganda **8,4 %** ga ko'paydi.


YAHM deflyator indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylari narxlariga nisbatan **109,6 %** ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi **1,8 %** tashkil qildi.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2025- yil	2026- yil	
I. YAHM, jami	16 124,5	19 147,9	108,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 683,5	18 633,8	108,2
mahsulotlarga sof soliqlar	441,0	514,1	114,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	15 683,5	18 633,8	108,2
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3 719,7	4 688,5	104,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 015,4	6 907,1	109,8
sanoat	4 739,0	5 384,8	108,1
qurilish	1 276,4	1 522,3	116,0
xizmatlar	5 948,4	7 038,2	109,0
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 167,0	2 637,8	115,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	607,5	767,0	119,5
boshqa xizmat tarmoqlari	3 173,9	3 633,4	102,8

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **20 167,1** ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan **6,7 %** ga ko'pdir.

2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
(ming so'mda)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2025- yil	2026- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23,7	25,2
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	38,3	37,1
sanoat	30,2	28,9
qurilish	8,1	8,2
xizmatlar	38,0	37,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,8	14,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,9	4,1
boshqa xizmat tarmoqlari	20,3	19,4




2026- yilning yanvar-iyun oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning **97,3 %** ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa **2,7 %** ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi **25,2 %** ni, sanoat tarmog'i **28,9 %** ni, qurilish **8,2 %** ni va xizmatlar sohasi **37,7 %** ni tashkil qildi.

Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2025- yil



2026- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i **1,0** f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – **1,0** f.p.), sanoat tarmog'i – **2,4** f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – **1,8** f.p.), qurilish tarmog'i – **1,3** f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – **1,2** f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – **3,3** f.p. (2025- yilning yanvar-iyunida – **2,2** f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM **0,4** f.p. hissa qo'shdi

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **104,2 %** (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – **25,2 %**), sanoatda – **108,1 %** (**28,9 %**), qurilishda – **116,0 %** (**8,2 %**), xizmatlar sohasida – **109,0 %** ni (**37,7 %**) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda **115,3 %** (**14,2 %**), tashish va saqlash, axborot va aloqa **119,5 %** (**4,1 %**), boshqa xizmat tarmoqlarida **102,8 %** dan (**19,4 %**) iborat bo'ldi.

Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2025- y.

2026- y.



6,3 %

YAHM

8,4 %



3,8 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

4,2 %



5,6 %

Sanoat

8,1 %



16,5 %

Qurilish

16,0 %




6,5 %

Xizmatlar

9,0 %

2026- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM deflyatori indeksi 2025- yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan **109,6** foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 121,0 % va xizmatlarda – 108,5 % qayd etildi.

**Yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat
turlari bo'yicha deflyator indeksi**
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2026- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik **12 884,2** mlrd. so'mni tashkil etdi (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – **10 918,8** mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi **69,1%** ni (2025- yilning yanvar-iyun oylarida – **69,6%**) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Yanvar-iyun oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2025- yil

10 918,8

69,6 %

2026- yil

12 884,2

69,1 %

